**Davriy nashrni yetkazib berish uchun**

# SHARTNOMA № 219

2022 y " 17 " 01 . Toshkent shahar.

**MCHJ "Grand Inter Media",** kelgusida «Xizmat ko'rsatuvchi» deb ataluvchi nomidan, Nizom asosida faoliyat yurituvchi raxbari **Tё E.A.,** bir tomondan, va **Toshkent davlat yuridik universiteti,** kelgusida "Buyurtmachi" deb ataluvchi nomidan 2020-yil 25-sentyabrdagi 08-176-son buyrugi asosida prorektor **A.Iminov**, birgalikda "Taraflar", alohida esa «Taraf» deb ataluvchilar, mazkur Shartnomani qo'yidagilar haqida tuzadilar:

## 1. SHARTNOMANING PREDMETI

1.1. Xizmat ko'rsatuvchi yetkazib berish bo'yicha xizmat majburiyatlarini o'z zimmasiga oladi va Buyurtmachi egaligiga mazkur Shartnomaning ajralmas qismi hisoblangan 1-Ilovasida keltirilgan davriy bosma nashrlarning namunalarini (kelgusida - Tovar) Shartnoma va 1-Ilovada kelishilgan miqdorda, assortimentda va muddatda yetkazib beradi, Buyurtmachi esa Tovarni mazkur Shartnoma shartlariga asosan qabul qilish va Tovar haqini to'lab berish majburiyatlarini o'z zimmasiga oladi.

1.2. "Tovarning" aniq nomi, miqdori 1-Ilovada belgilanadi. Tovar qiymati mazkur Shartnomaning amal qilish muddatiga to'g'ri keladi.

1.3. Mazkur Shartnomaga asosan tovarni yetkazib berish bo'yicha xizmat ko'rsatish davri Mazkur Shartnomaning 1-Ilovasida keltiriladi.

## 2. TOMONLARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

**2.1. Xizmat ko'rsatuvchining majburiyatlari:**

2.1.1. Tegishli sifatga ega "Tovar"ni Xizmat ko'rsatuvchi hisobidan Buyurtmachiga Toshkent shaxri, Sayilgox kuchasi, 35-uy manzil bo'yicha yetkazib berish.

2.1.2. Mazkur Shartnomaning 1-Ilovasiga asosan Buyurtmachiga belgilangan miqdorda va assortimentda "Tovar" yetkazib berish.

2.1.3. Xizmat ko'rsatuvchi Buyurtmachiga yetkazib berish bo'yicha bajarilgan hizmatlar dalolatnomasi va har oyning oxirida yetkazib berilgan Nashrlar bo'yicha hisob-fakturalarni taqdim etish majburiyatini oladi.

2.1.4. Nashriyot yeki davriy bosma nashrni chiqaruvchi boshqa shaxs tomonidan belgilangan "Tovar" ning davriyligiga asosan hizmat ko'rsatadi.

2.1.5. Hisob oyi davomida amaldagi qonunchilik talablariga binoan, Buyurtmachi tomonidan Xizmat ko'rsatuvchiga qaratilgan yetkazilmagan sifatsiz "Tovar"larni yetkazish bo'yicha talablarini bajaradi.

2.1.6. Buyurtmachi tomonidan yaroqsiz, shuningdek polikrafik yaroqsiz va mahsulot shaklini yo'qotgan "Tovar"ni almashtirish to'g'risida talab tushsa, Xizmat ko'rsatuvchi mazkur talab kelib tushgandan boshlab 10 kun ichida almashtirish majburiyatini amalga oshiradi.

**2.2 Xizmat ko'rsatuvchining huquqlari:**

2.2.1 Mazkur shartnomaning predmetiga tegishli savollar bo'yicha Buyurtmachidan xujjatlar, ma'lumotlar olish, shuningdek Xizmat ko'rsatuvchi o'z majburiyatlarini mazkur Shartnomaga asosan sifatli bajarish uchun kerakli og'zaki va yozma tushuntirishlar va tushunchalar olish .

2.2.2. Xizmat ko'rsatuvchi Buyurtmachi bilan yozma ravishda 30 (o'ttiz) kun oldin kelishilgan holda 1- ilovada keltirilgan nashrlarni almashtirish huquqiga ega.

**2.3. Buyurtmachi majburiyatlari:**

2.3.1. "Tovar"ni nomlanishi va miqdori bo'yicha ko'rib chiqish va tovar sifati lozim darajada bo'lgan taqdirda qabul qilish;

2.3.2. Tovar sifati lozim darajada bo'lgan taqdirda yetkazib berish bo'yicha xizmatlar dalolatnomasini imzolash;

2.3.3. Tovar sifati lozim darajada boʻlmagan taqdirda Tavarni qabul qilmagan kundan boshlab 5 ish kun ichida Tovarni qabul qilishmaslikni sabablarni koʻrsatgan holda habardor qilish.

2.3.4. Mazkur Shartnomaning shartlariga asosan toʻlovlarni belgilangan muddatda va narhda amalga oshirish.

**2.4. Buyurtmachi huquqlari:**

2.4.1. Yetkazib beruvchidan Shartnomada belgilargan muddatlarda Tovarni yetkazib berilishini talab qilish;

2.4.2. Yetkazib berilmagan yoki sifati lozim darajada boʻlmagan tovarlar yetkazib berilgan taqdirda 10 kun ichida Yetkazib beruvchidan sifatli tovar bilan almashtirib berishini talab qilish;

## 3. SHARTNOMA NARHI. HISOB-KITOB TARTIBI.

3.1. Mazkur Shartnomaning umumiy summasi: **99 258 343 (to'qson to'qqiz million ikki yuz ellik sakkiz ming uch yuz qirq uch)** soʻmni tashkil etadi. Qoʻshilgan qiymat soligʻi bilan.

3.2. Buyurtmachi Xizmat koʻrsatuvchi bilan hisob-kitobni qoʻyidagi tartibda amalga oshiradi:

- Mazkur Shartnoma tomonlar imzolagandan soʻng va Oʻzbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi qoshidagi Gʻaznachilikdan roʻyhatdan oʻtgan soʻng Buyurtmachi 100 % miqdordagi oldindan toʻlovni Xizmat koʻrsatuvchi hisob raqamiga 5 (besh) bank kuni ichida oʻtkazadi.

3.3. Buyurtmachi va Xizmat koʻrsatuvchi oʻrtasidagi barcha oʻzaro hisob-kitoblar toʻlov topshiriqnomasi orqali Xizmat koʻrsatuvchi Shartnomaning 11 boʻlimida koʻrsatib oʻtilgan hisob raqamiga mablagʻ oʻtkazish orqali Oʻzbeksiton Respublikasi milliy valyutasi-soʻmda amalga oshiriladi. Toʻlov sanasi Xizmat koʻrsatuvchining hisob raqamiga mablagʻ oʻtkazilgan sana hisoblanadi.

3.4. Xizmat koʻrsatuvchi tomonidan Buyurtmachiga hisob-fakturalar mazkur Shartnomada belgilangan tartibda va muddatda taqdim etiladi.

3.5. Buyurtmachi mazkur shartnoma boʻyicha oʻz zimmasiga qabul qilgan majburiyatlarni shartnomaga asosan 100% oldindan toʻlov amalga oshirilgandan soʻng va 2022-yil 1-yanvar kunidan 2022-yilning 30-iyungacha belgilangan muddatlarda bajarmagan taqdirda, Buyurtmachi bu haqda qonun hujjatlarida belgilangan tartibda Bajaruvchiga yozma ravishda xabardor qilgan holda, shartnomani bir tomonlama tartibda bekor qilish huquqiga egadir.

## 4. TOVARNI YETKAZIB BERISH VA QABUL QILISH TARTIBI

4.1. “Tovar”ni yetkazib berish Xizmat koʻrsatuvchi tomonidan mazkur Shartnomaning 2.1.1. bandida koʻrsatilgan manzilgacha amalga oshiriladi.

4.2. Agarda hisobot davrida yetkazib berilgan “Tovar”ning miqdori yoki sifatiga eʼtirozlar boʻlsa, shuningdek ular bartaraf etilmasa, Buyurtmachi yetkazib berish xizmatlari boʻyicha dalolatnomani imzolashdan bosh tortish va Xizmat koʻrsatuvchiga eʼtiroz bildirish huquqiga ega. Agarda belgilangan muddat ichida Buyurtmachi tomonidan hech qanday eʼtirozlar kelib tushmasa, hisobot davri uchun “Tovar” buyurtmachi tomonidan eʼtirossiz qabul qilingan deb hisoblanadi.

4.3. Buyurtmachi hisobot davrida “Tovar”ni yetkazilmaganligi haqida yezma ravishda talabnoma taqdim etamagan hollarda, yetkazib berish xizmatlari dalolatnomasiga imzo qoʻyishdan bosh tortishga haqli emas.

4.4. Buyurtmachi poligrafik yaroqsizlikka ega “Tovar”ning namunalari taqdim etilganda, oʻz tanloviga koʻra qoʻyidagilarni talab etishga haqli:

a) oʻxshash nashrning namunasi (namunalari)ga almashtirish;

b) Yetkazilib berilmagan “Tovar” narxini qaytarishni talab etish.

## 5. MAHFIYLIK

5.1. Taraflar mazkur Shartnomani ijro qilgan davrda, boshqa Tarafni ogohlantirgan holda, bir tomonlama baʼzi maʼlumotlarning mahfiyligini belgilash huquqiga ega.

5.2. Taraflar ikkinchi Tarafning dastlabki yozma roziligisiz mazkur shartnoma boʻyicha boshqa tomondan olingan maʼlumotlarni uchinchi shaxslarga yetkazish, uzatish va oʻz maqsadlariga ishlatish man etiladi.

## 6. TARAFLARNING JAVOBGARLIGI

6.1. Taraflar ushbu shartnoma bo'yicha majburiyatlar bajarmagan taqdirda, O'zbekiston Respublikasi amaldagi qonunchiligiga asosan javobgarlikka tortiladilar.

6.2. Xizmat ko'rsatuvchi tovarni yetkazib berish muddatida Buyurtmachi to'lov bo'yicha mazkur Shartnomaning 3.2 bandiga asosan sababli kechiktirilgan va to'plamiyligi buzilgan holatlarda javobgarlikka tortilmaydi.

6.3. Agarda "Tovar" o'z vaqtida yetkazilmasa, Xizmat ko'rsatuvchi Buyurtmachiga Shartnoma summasining har bir kun uchun 0.5 % miqdorda penya to'laydi, ammo bu summa Sharnoma summasining 50% dan oshmasligi lozim.

6.4. Agarda Shartnoma bo'yicha to'lovlar vaqtida amalga oshirilmasa Buyurtmachi Xizmat ko'rsatuvchiga har bir kechiktirilgan kun to'lanmagan summa uchun 0.4% penya to'laydi, ammo bu summa kechiktirilgan to'lov summasining 50% oshmasligi lozim.

6.5. Agarda Taraflarning bittasi mazkur shartnoma bo'ycha majburiyatlarni bajarish yengib bo'lmaydigan kuch yeki ikkinchi Tomon sababli yuzaga kelganini isbotlab bersa, shu Taraf neustoyka to'lashdan ozod etiladi.

6.6. Mazkur Shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarmagan yoki ularni kerakli darajada amalga oshirmagan Xizmat ko'rsatuvchi Buyurtmachiga keltirgan zararlarini qoplab berishi shart.

## 7. FORS-MAJOR HOLATLAR

7.1. Taraflardan biri mazkur Shartnoma bo'ycha o'z majburiyatlarini fors-major xolatlar. Ya'ni yengib bo'lmaydigan kuch (favqulotda va muayyan sharoitlarda oldini olib bo'lmaydigan vaziyatlar, zilzila, qurg'oqchilik, suvtoshqini, yong'in, sel, do'l, jala va boshqa tabiy ofoatlar) tufayli bajarmagan yoki lozim darajada bajarmaganligini isbotlasa, javobgarlikdan ozod etiladi.

7.2. Mazkur vaziyatlar yuzaga kelganda Taraflardan biri ikkinchi Tarafnni 15 (o'n besh ) kalendar kun ichida ogohlantirishi shart.

## 8. SHARTNOMA AMAL QILISH MUDDATI. SHARTNOMA SHARTLARINI O'ZGARTIRISH.

8.1. Shartnoma Taraflar tomonidan imzolanib O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi qoshidagi G'aznachilikdan ro'yhatdan o'tgan so'ng kuchga kiradi. Mazkur shartnoma 2022-yil 31-dekabrgacha amal qiladi.

8.2. Ushbu shartnomaga kiritilgan har qanday o'zgartirish va qo'shimchalar taraflarning yozma shaklda rasmiylashtirilgan va taraflar tomonidan imzolangan xamda muxr qo'yilgan taqdirda haqiqiy hisoblanadi.

## 9. NIZOLARNI BARTARAF ETISH TARTIBI .

9.1. Taraflar barcha Shartnomaga bo'yicha yuzaga keluvchi yoki o'z majburiyatlarini bajarish oqibatida kelib chiquvchi nizolar va kelishmovchiliklarni kelishuv orqali bartaraf etish choralarini ko'radilar.

9.2. Mazkur Shartnoma yuzasidan Taraflarning birida e'tiroz bo'lgan taqdirda. E'tiroz qabul qilgan Taraf, uni ko'rib chiqib, ikkinchi Tarafga 15 kun ichida javob taqdim etishi shart.

9.3. Kelishuv yuli bilan bartaraf etish imkoni bo'lmagan holatlarda, mazkur nizolar amaldagi qonunchilik doirasida Toshkent shahar iqtisodiy sudiga ko'rib chiqish uchun taqdim etiladi..

## 10. BOSHQA SHARTLAR

10.1. Shartnoma bir xil yuridik kuchga ega bo'lgan ikkita bir xil nusxada, har bir taraf uchun bittadan tuziladi.

10.2. Mazkur Shartnomada keltirilmagan barcha o'zga holatlarda Taraflar O'zbekiston Respublikasi amaldagi qonunchiligiga rioya qiladi.

10.3. Agarda Taraflarning biri o'z pochta, aloqa va to'lov rekvizitlarini o'zgartirganda yoki qaytadan tashkil etishga yoxud tugatilishga duch kelaganda, ushbu Taraf ikkinchi Tarafni mazkur o'zgarishlar kiritilgandan so'ng 2 (ikki) ish kuni davomida yozma ravishda xabardor etishi shart. (agarda qaytadan tashkil etish yoki tugatilish nazarda tutilsa- 1 (bir) ish kuni ichida).

10.4. **Taraflar ushbu Shartnomaha ilova qiladigan korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha Asosiy shartlarni o'z zimmalariga oladilar.**

## 11. TOMONLARNING BANK REKVIZITLARI VA MANZILI

| **Xizmat ko'rsatuvchi:** | | **Buyurtmachi:** |
|---|---|---|
| | | |
| **МЧЖ "Grand Inter Media"** | | **Toshkent davlat yuridik universiteti** |
| Yuridik manzil:<br>Toshkent shaxar, Buyuk Turon kuchasi 41 uy<br>**x/r 2020 8000 2006 4742 1001**<br>**BANK: ATIB "IPOTEKA BANK"**<br>МФО: 00 419 ОКЭД: 53 200<br>STIR: **304 199 595**<br>Tel./faks: (998 90) 934 17 19<br><br>Raxbar ________________<br>**Tё Е.А** | | Yuridik manzil:<br><br>TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI<br>TOSHKENT SHAHAR, SAYILGOH KO'CHASI 35-UY<br>O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MOLIYA VAZIRLIGI G'AZNACHILIGI<br>H/r:2340 2000 3001 0000 1010 STIR: 201 122 919<br>MB TOSHKENT SH. HKKM MFO: 00014<br>Sh/r:400910860262667094100009002<br>STIR: 201 122 349 IFUT: 85420<br><br>Проректор |

"TASDIQLAYMAN"
"Grand Inter Media" ma'suliyati cheklangan jamiyati raxbari
_____________ Tyo.Ye.A.

"KELISHILDI"
Проректор А. Шишков
_____________

2022-yil "17" 01 ________ "219" sonli shartnomaning
ajralmas qismi bo'lgan
1-sonli ilova
Rossiya davlati davriy nashrlariga obuna bo'lish va yetkazib berish
**R O' Y X A T I**

| № | Nashrlar nomi (gazeta va jurnallar) | Indeks | Nashr nusxasi | Bir yilda nashr davriyligi | Narxi | Summasi | Obuna davri |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 1 | Административное право и процесс | 11162 | 1 | 12 | 1 749 943 | 1 749 943 | 2022-yil |
| 2 | HARVARD LAW REVIEW | | 1 | 8 | 1 485 000 | 1 485 000 | 2022-yil |
| 3 | Oxford journal of legal studies | | 1 | 4 | 4 884 000 | 4 884 000 | 2022-yil |
| 4 | European international property law | | 1 | | 4 933 500 | 4 933 500 | 2022-yil |
| 5 | The Cambridge Law Journal Great Britain. Faculty of Law, University of Cambridge | | 1 | | 4 339 500 | 4 339 500 | 2022-yil |
| 6 | Банковское право | 85481 | 1 | 6 | 917 589 | 917 589 | 2022-yil |
| 7 | Библиотечное дело | 81774 | 1 | 24 | 1 702 046 | 1 702 046 | 2022-yil |
| 8 | Ведомости уголовно исполнительной системы | | 1 | 12 | бесплатно | | 2022-yil |
| 9 | Вестник гражданского права | 36978 | 1 | 6 | 1 698 274 | 1 698 274 | 2022-yil |
| 10 | Вестник криминалистики | 45004 | 1 | 4 | 579 291 | 579 291 | 2022-yil |
| 11 | Государство и право (академический журнал) | 38804 | 1 | 12 | 3 094 080 | 3 094 080 | 2022-yil |
| 12 | Гражданское право | 11159 | 1 | 6 | 830 469 | 830 469 | 2022-yil |
| 13 | Журнал зарубежного законодательства и сравнительного права | 42274 | 1 | 6 | 3 999 223 | 3 999 223 | 2022-yil |
| 14 | Закон и право | 45948 | 1 | 12 | 4 771 234 | 4 771 234 | 2022-yil |

| | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 15 | Интеллектуальная собственность. Право и смежные права | 79706 | 1 | 12 | 3 499 131 | 3 499 131 | 2022-yil |
| 16 | Информационная безопасность/Inf.sek | 47347 | 1 | 6 | 5 659 029 | 5 659 029 | 2022-yil |
| 17 | Информационное право | 91912 | 1 | 4 | 678 857 | 678 857 | 2022-yil |
| 18 | История государства и права | 85492 | 1 | 12 | 1 955 863 | 1 955 863 | 2022-yil |
| 19 | Конкурентное право | | 1 | 4 | 452 571 | 452 571 | 2022-yil |
| 20 | Корпоративный юрист | 20156 | 1 | 12 | 7 756 697 | 7 756 697 | 2022-yil |
| 21 | Международное правосудие | | 1 | 4 | 543 086 | 543 086 | 2022-yil |
| 22 | Международное публичное и частное право | 39431 | 1 | 6 | 830 469 | 830 469 | 2022-yil |
| 23 | Международное уголовное право и международная юстиция | 91894 | 1 | 6 | 758 057 | 758 057 | 2022-yil |
| 24 | Права человека. Практика европейского суда по правам человека. | 11736 | 1 | 12 | 10 971 086 | 10 971 086 | 2022-yil |
| 25 | Право интеллектуальной собственности | 91904 | 1 | 4 | 562 697 | 562 697 | 2022-yil |
| 26 | Предпринимательское право (с приложением) | 11161 | 1 | 4 | 761 451 | 761 451 | 2022-yil |
| 27 | Российский следователь | 26069 | 1 | 12 | 1 478 400 | 1 478 400 | 2022-yil |
| 28 | Семейное и жилищное право | 15105 | 1 | 6 | 939 086 | 939 086 | 2022-yil |
| 29 | Таможенное дело | 91908 | 1 | 4 | 503 863 | 503 863 | 2022-yil |
| 30 | Уголовное право | 14041 | 1 | 12 | 1 422 583 | 1 422 583 | 2022-yil |
| 31 | Уголовное судопроизводство | 88528 | 1 | 4 | 479 349 | 479 349 | 2022-yil |
| 32 | Уголовно-исполнительная система: право, экономика, управление | 84285 | 1 | 6 | 724 114 | 724 114 | 2022-yil |
| 33 | Уголовный процесс | 84639 | 1 | 12 | 7 363 714 | 7 363 714 | 2022-yil |

| | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 34 | Финансовое право | 39454 | 1 | 12 | 1 511 966 | 1 511 966 | 2022-yil |
| 35 | Хозяйство и право (без приложения) | 41884 | 1 | 12 | 3 514 971 | 3 514 971 | 2022-yil |
| 36 | Экологическое право | 85491 | 1 | 6 | 769 371 | 769 371 | 2022-yil |
| 37 | Эксперт – криминалист | 91912 | 1 | 4 | 435 977 | 435 977 | 2022-yil |
| 38 | Юридический мир | 91915 | 1 | 12 | 1 990 183 | 1 990 183 | 2022-yil |
| 39 | Юридическое образование и наука | 91914 | 1 | 12 | 1 349 040 | 1 349 040 | 2022-yil |
| 40 | Юрист | 86887 | 1 | 12 | 2 037 326 | 2 037 326 | 2022-yil |
| 41 | Юрист (с ежемесячным приложением) комплект | 82565 | 1 | 22 | 3 466 697 | 3 466 697 | 2022-yil |
| 42 | Конституционное и муниципальное право | 85486 | 1 | 12 | 1 858 560 | 1 858 560 | 2022-yil |
| | | Jami | | | | 99 258 343 | |

2022 йил "17" 01
219 - сон шартномага 1 - илова

**Коррупцияга қарши курашиш бўйича**

**АСОСИЙ ШАРТЛАР**

1. Тарафлар шартнома бўйича ўз мажбуриятларини бажараётганда Ўзбекистон Республикасининг коррупцияга қарши курашиш тўғрисидаги қонун ҳужжатларининг талабларига зид келадиган ҳар қандай ҳаракатларни амалга оширмайдилар, шу жумладан, пора беришни таклиф қилмайди, ваъда бермайди, товламачилик қилмайди, пора сифатида пул тўламайди, бевосита ёки билвосита пора олишга розилик бермайди ёки пора, яъни Тошкент давлат юридик университети ходими ўз хизмат мажбуриятларидан фойдаланган ҳолда пора берган шахснинг манфаатларини кўзлаб муайян ҳаракатларни содир этиши ёки содир этмаслиги шартлиги ёки мумкинлиги учун моддий қийматликларни ёки мулкий наф олмайди. Тарафлар ушбу ҳаракатларга йўл қўймаслик бўйича чоралар кўрилишига кафолат беради.

2. Агар шартнома бўйича бир Тараф Тошкент давлат юридик университети ходимининг ахлоққа тўғри келмайдиган ва ушбу шартнома ёки Ўзбекистон Республикаси қонун хужжатларига зид келадиган хатти-ҳаракатларига, шу жумладан, коррупцияга оид ҳуқуқбузарлик содир этишга мажбурлашдан иборат фактлар дуч келса, бу ҳақда қуйидаги алоқа каналларидан бири орқали хабардор қилиши керак:

"71 233 42 09" ишонч телефони;
Telegram-канали (@tsulantikorbot);
Тошкент давлат юридик университети расмий веб-сайти(www.tsul.uz)да жойлаштирилган шакл ёки электрон почта (info@tsul.uz).

| Ижрочи: | Буюртмачи: |
|---|---|
| ____________ /________/ | ____________ /________/ |

GRAND INTER MEDIA
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI TOSHKENT SHAHAR ... CHEKLANGAN JAMIYATI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ADLIYA VAZIRLIGI TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI